PRAGA BAHORI: 1968-YILGI CHEXOSLOVAKIYA SIYOSIY INQIROZINING TARIXI, SABABLARI VA OQIBATLARI

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI

Xalqaro munosabatlar yo’nalishi 1 - bosqich

Talaba:Abdubannobov Abdulloh Farhodovich

Ilmiy rahbar:Qo’ysinova Fazilat Oripovna

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1968-yilda Chexoslovakiyada ro‘y bergan va XX asr Yevropa tarixining eng muhim siyosiy hodisalaridan biri bo‘lmish Praga bahori to‘liq o‘rganiladi. Maqolada Praga bahorining tarixiy-siyosiy sabablari, ijtimoiy va iqtisodiy fonlari, islohotlar jarayoni, Sovet Ittifoqining munosabati, harbiy bosqin va uning bevosita hamda uzoq muddatli oqibatlari haqida keng va aniq ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bu hodisaning Sharqiy Yevropa va jahon siyosatiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Maqola 1945-yildan 1989-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *Praga bahori, Chexoslovakiya, Aleksandr Dubchek, insoniy yuzli sotsializm, Varshava Pakti, Sovet bosqini, destalinizatsiya, Brejnev doktrinasi, normalizatsiya, Baxmal inqilob, “Dunay” operatsiyasi, Xartiya-77.*

KIRISH

Praga bahori - bu 1968-yil yanvar oyidan avgust oyiga qadar Chexoslovakiyada kechgan va XX asr siyosiy tarixida chuqur iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy harakat. Ushbu hodisa nomini o‘sha yilning bahor faslidan olgan bo‘lib, mamlakatda yangi siyosiy nafas paydo bo‘ldi, erkinlik kayfiyati hukm surdi va islohotlar jarayoni jadal sur’atda amalga oshirila boshladi.

1968-yilning 5-yanvarida Aleksandr Dubchek Chexoslovakiya Kommunistik partiyasining Birinchi kotibi etib saylandi. U hukmron partiya doirasida turib ham, insoniy qadriyatlarga asoslangan islohotlarni amalga oshirish zarurligini ochiqchasiga e'lon qildi. Uning "insoniy yuzli sotsializm" g'oyasi nafaqat mamlakat ichida, balki butun Sharqiy Yevropa bo'ylab ulkan aks-sado uyg'otdi. Ammo bu umid to'la amalga oshmadi. 1968-yilning 21-avgustida 200 000 dan ortiq Varshava Pakti askarlari va 2 000 ga yaqin tank Chexoslovakiya hududiga kirib, islohotlarni harbiy kuch bilan bostirdi. Ushbu voqea jahon hamjamiyatini larzaga soldi va Sovet Ittifoqining xalqaro obro'siga katta zarar yetkazdi.

Ushbu maqolaning maqsadi - Praga bahorini har tomonlama o'rganish: uning ildizlari, jarayoni, ishtirokchilari, bostirilishi va tarixiy ahamiyatini aniq faktlar asosida tahlil qilish. Tadqiqot 1945-yildan 1989-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

TARIXIY FONI VA SABABLARI

Chexoslovakiya Sovet ta'siri ostida (1945–1967). 1945-yilda Ikkinchi Jahon urushi tugagach, Chexoslovakiya Sovet Ittifoqining geosiyosiy manfaatlar doirasiga kirdi. Germaniyadan ozod qilinishida Sovet qo'shini hal qiluvchi rol o'ynadi. Bundan foydalangan mahalliy kommunistlar 1946-yilgi parlament saylovlarida 38 foiz ovoz to'plab, birinchi o'ringa chiqdilar.

1948-yilning 25-fevralida kommunistlar to'liq hokimiyatni qo'lga kiritdi. Bu sana chex tarixida "Fevrali Poraxovatsiya" nomi bilan qoldi. Bosh vazir Klement Gottwald rahbarligida tuzilgan yangi hukumat Sovet modeliga to'la asoslangan siyosat yurita boshladi: sanoatni milliylashtirishdan tortib, qishloq xo'ljaligida majburiy kollektivlashtirishgacha bo'lgan barcha choralar qisqa vaqt ichida amalga oshirildi.

1950-yillarning boshida Chexoslovakiyada stalincha tozalashlar avj oldi. 1952-yilda sobiq Bosh kotib Rudolf Slanski va uning 13 nafar hamkasbi josuslikda ayblanib, ulardan 11 tasi qatl etildi. Minglab odamlar qamoqqa olindi, lavozimdan chetlatildi, badarg'a qilindi. Bu repressiyalar jamiyatda chuqur qo'rquv muhitini vujudga keltirdi.

1953-yilda Stalin vafotidan so‘ng Xrushchevning “Destalinizatsiya” siyosati Chexoslovakiyaga ham yetib keldi, ammo mamlakat rahbari Antonin Novotni bu yo‘lda juda sekin harakat qildi. 1957-yilda Novotni bir vaqtning o‘zida ham Kommunistik partiya Birinchi kotibi, ham prezident lavozimini egalladi. Bu ikki lavozimni bitta qo‘lda to‘plamagini ko‘pchilik tanqid qilardi.

Iqtisodiy inqiroz. 1960-yillarning o‘rtalariga kelib Chexoslovakiya iqtisodiyotida og’ir muammolar yuzaga keldi. 1962-1963-yillarda yalpi ichki mahsulot o‘sishi to‘xtab, hatto manfiy ko‘rsatkichga - minus 1,4 foizga - tushib qoldi. Batafsil aytganda: markazlashgan reja tizimi moslashuvchan bo‘lmay qoldi, texnologik yangilanish sekinlashdi, og’ir sanoatga bo‘lgan urg‘u iste’mol mollar ishlab chiqarishga bo‘ldi. Iqtisodchi Ota Shik rahbarligida 1965-yilda yangi iqtisodiy islohot dasturi tayyorlandi. Ushbu dastur bozor mexanizmlarini qisman joriy etish, korxonalarga mustaqilroq qaror qabul qilish huquqini berish va markaziy rejalashtirishni cheklashni ko‘zda tutar edi. Siyosiy rahbariyat bu dasturni 1967-yildan boshlab qo‘llay boshladi, lekin amalda u hali to‘la amalga oshirilmagan edi.

Ziyolilar va ijodkorlarning noroziligi. 1967-yilning iyunida Praga shahrida bo‘lib o‘tgan Chexoslovakiya yozuvchilar ittifoqining IV qurultoyida bir qator mashhur adiblar ochiqchasiga o‘z noroziligini bildirdi. Yozuvchi Milan Kundera, shoir Pavel Kohout va boshqalar matbuot senzurasini, siyosiy qamoqlarni va Sovet nazoratini qattiq tanqid qildi. Novotni bu so‘zlarni “partiyadushman chiqish” deb baholadi va bir qator adiblarni partiyadan chiqarish yoki chetlashtirishga buyruq berdi. Ammo bu qadam jamiyatda yanada kuchliroq norozilikning uyg‘onishiga sabab bo‘ldi.

1967-yilning oktyabrida Praga oliy texnika bilim yurti talabalari o‘z yotoqxonalarida elektr bo‘lmaganiga norozilik bildirb, ko‘chaga chiqdi. Militsiya ularni tarqatib yubordi. Bu voqea jamiyatda katta rezonans uyg‘otdi. Shu tariqa, iqtisodiy muammolar, ziyolilar noroziligi va talabalar harakati birlashib, siyosiy inqirozning dastlabki belgilarini yuzaga chiqara boshladi.

ISLOHOTLAR DAVRI: 1968-YIL YANVAR-AVGUST

Dubchekning hokimiyatga kelishi. 1968-yilning 5-yanvarida bo‘lib o‘tgan Markaziy Qo‘mita yig’ilishida Slovakiya kelibchiqmali kommunist Aleksandr Dubchek Novotnini siqib chiqarib, Kommunistik partiyaning Birinchi kotibi bo‘ldi. Dubchek 1921-yil 27-noyabrda Uhrovets shahrida tug‘ilgan va yoshligini Sovet Ittifoqida o‘tkazgan. U Moskva partiya maktabida tahsil ko‘rgan. Shuning uchun Moskva dastlab unga ishondi. Ammo u kutilmagan yo‘l tutdi. 1968-yilning 22-marta esa Novotni prezidentlik lavozimidan ham istefo berdi. O‘rniga harbiy general Ludvik Svoboda prezident bo‘ldi. Shunday qilib, islohotchilar ikki asosiy davlat lavozimini ham egalladilar.

Aprel “Harakat dasturi”. 1968-yilning 5-aprelida Kommunistik partiya “Harakat dasturi”ni (Action program) e’lon qildi. Bu 30 sahifalik hujjat chex tarixida misli ko‘rilmagan islohotlarni o‘zida aks ettirdi. Dasturning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat edi:

Birinchi: Matbuot, radio va televideniyada senzura to‘liq bekor qilindi. Bu o‘zgarish mamlakat hayotida shiddat bilan sezildi. Yanvar-avgust oylarida Chexoslovakiya gazetalari va jurnallari Stalin davridan buyon bo‘yicha bosilib kelgan haqiqatlarni birinchi bor ochiq yoza boshladi. Mashhur “Literarni noviny” (Adabiy yangiliklar) nashri minglab nusxada tarqatildi

Ikkinchi: Siyosiy mahbuslar ozod etildi. 1950-yillardagi repressiyalar qurbonlari, jumladan Slanski ishi bilan bog‘liq shaxslar rasman oqlandi. Bu qaror ko‘plab oilalar uchun ko‘z yoshi va quvonch aralash hodisa bo‘ldi.

Uchinchi: Ko‘ppartiyaviy tizimga qadam tashlandi. Boshqa siyosiy partiyalar – xususan, tarixiy Chexiya Milliy ijtimoiy partiyasi va Xalq partiyasi – qonuniy faoliyat yuritish huquqini qayta oldi. Ular kommunistlar bilan birgalikda “Milliy front” koalitsiyasiga kirdi1.

[1] Judt, T. - "Urushdan keyin: 1945-yildan beri Yevropa tarixi" https://www.google.com/books/edition/Postwar/7pNIEAAAQBAJ

To‘rtinchi: Chexiya va Slovakiya teng huquqli federativ respublikalar deb e’lon qilindi. Bu karor 1969-yil 1-yanvardan kuchga kirib, ikki respublika ham o‘z milliy kengashlariga ega bo‘ldi.

Beshinchi: Fuqarolarga to‘liq sayohat erkinligi berildi. Bu G‘arb bilan chegaralarning ochilishini anglatardi. 1968-yilning bahor-yozida chex va slovak fuqarolari birinchi marta erkin ravishda Avstriyaga, Germaniyaga va boshqa G‘arb mamlakatlariga chiqa boshladi.

Ommaviy harakatning kuchayishi. Islohotlar e’lon qilinishi bilan birga jamiyat hayotida misli ko‘rilmagan uyg‘onish boshlandi. “K-231” nomi bilan tashkil topgan sobiq siyosiy mahbuslar uyushmasi bir necha oyda 70 000 dan ortiq a’zo to‘pladi. “Quroli yo‘qlar klubi” deb nomlangan mustaqil ijtimoiy harakat ham keng quloch yoydi. Praga ko‘chalarida erkin muhokamalar, madaniy tadbirlar va ijtimoiy yig‘ilishlar to‘xtovsiz davom etdi. Ziyolilar, yozuvchilar va olimlar ham bu jarayonda faol ishtirok etdi. 1968-yilning iyunida “Ikki ming so‘z” (Dva tisíce slov) nomli murojaatnoma e’lon qilindi. Yozuvchi Ludvik Vaculik tomonidan yozilgan bu matnda jamiyatning davlat boshqaruvida faolroq ishtirok etishi talab qilindi. Ushbu hujjat 70 taniqli ziyoli, olim, sportchi va san’atkorning imzosi bilan nashr etildi va qisqa vaqt ichida 40 000 nusxada tarqaldi. Moskva esa uni “kontrrevolyutsion” deb qoraladi.

SOVET ITTIFOQINING MUNOSABATI VA BOSIM

Moskvaning xavotiri. Sovet Ittifoqi Chexoslovakiyadagi voqealarni dastlabki kunlaridan boshlab katta xavotir bilan kuzatib bordi. Bosh kotib Leonid Brejnev va uning atrofidagilar uchun asosiy muammo shunda edi: agar Chexoslovakiyada kommunistik partiya nazoratini yumshatsa, bu misol Polshaga, Vengriyaga, hatto Sovet Ittifoqining o‘zidagi ba’zi respublikalarga tarqalishi mumkin edi. Bu esa butun “sotsialistik lager”ning barqarorligiga tahdid solardi. Brejnev 1968-yilning mart-iyul oylari davomida Dubchek bilan bir necha marta shaxsiy telefon suhbatlari va uchrashuvlar o‘tkazdi. U Varshava Pakti doirasidagi mamlakat - SSSR, Polsha, GDR,

Vengriya va Bolgariya - rahbarlari bilan ham aloqada bo‘ldi. Bu davlatlar 1968-yil 15-iyulda Chexoslovakiyaga birgalikda murojaatnoma yuborib, islohotlarni to‘xtatishni talab qildi.

Bratislava uchrashuviyu Chierna uchrashuvlari. 1968-yilning iyulida Chierna nad Tisou shahrida (Chexiya-SSSR chegarasidagi temir yo‘l stantsiyasi) Sovet va chexoslovakiya rahbarlari o‘rtasida to‘rt kunlik muzokaralar bo‘ldi. Dubchek sotsializmning saqlanishiga kafolat berdi, ammo islohotlardan voz kechishga ko‘nmadi. 3-avgustda Bratislava shahrida Varshava Pakti a’zolari uchrashdi. Umumiy bayonot imzolandi, unda “sotsialistik yutuqlarni himoya qilish” majburiyati qayd etildi. Shu paytda Moskva harbiy aralashuv rejasini ham maxfiy tarzda ishlab chiqqan edi.

Brejnev doktrinasi. Bosqindan so‘ng Sovet Ittifoqi o‘z aralashuvini siyosiy jihatdan asoslash uchun “Brejnev doktrinasi” deb nom olgan g‘oyani rasmiylashtirdi. Ushbu doktrinaga ko‘ra, agar biror sotsialistik mamlakatda sotsializm xavf ostiga qolsa, Sovet Ittifoqi va uning ittifoqchilarining harbiy aralashuvi qonuniy hisoblanadi. Bu doktrina 1989-yilga qadar Sharqiy Yevropa ustidan SSSR nazoratini ta’minlab keldi. Gorbachev 1988-yilda ushbu doktrinadan rasman voz kechdi.

“DUNAY” OPERATSIYASI: HARBIY BOSQIN

Bosqinning borishi.1968-yilning 20-21-avgustida yarim tunda Varshava Pakti qo‘shinlari Chexoslovakiyaga kirib keldi. Operatsiya “Dunay” deb nomlandi. Ishtirok etgan kuchlar: SSSR — 165 000 askar va 1 500 tank; Polsha — 35 000 askar; Vengriya - 8 000 askar; Bolgariya - 5 000 askar; Sharqiy Germaniya — qo‘shin texnik qo‘llab-quvvatlash. Jami 200 000–250 000 askar va 2 000 tank bir vaqtda harakatga keldi. Birinchi soatlardayoq Praga aeroporti qo‘shinlar tomonidan egallanib, Sovet harbiy samolyotlari qo‘nishni boshladi. Sovet askarlari to‘g‘ridan to‘g‘ri Kommunistik partiya Markaziy Qo‘mitasi binosiga kirib bordi. Dubchek va uning eng yaqin hamkasblari — bosh vazir Oldrich Cernik, Milliy Majlis raisi Josef Smrkovsky, Milliy

Front raisi Frantisek Kriegel — hibsga olindi. Ular Moskvaga olib ketildi va bir necha kun davomida so‘roq ostiga olindi.

Xalqning tinch qarshiligi. Chex va slovak xalqi qurollangan bosqinga qarshi qurolsiz, ammo qahramonona qarshilik ko‘rsatdi. Praga ko‘chalarida minglab fuqarolar tanklarga to‘siq bo‘ldi. Ba’zilari yo‘llarni bloklashtirdi, ba’zilari tank ustiga chiqib ruscha bayroqlarni ag’darib tashladi. Ko‘cha ko‘rsatkichlari va belgilari o‘chib tashlandi yoki qayta yo‘lnaltirildi - bu askarlarni yangi shaharda adashtirib qo‘ydi.Yashirin radio va televideniye stantsiyalari harbiy bosqin tugamaguniga qadar ishlashni davom ettirdi. Chexoslovakiya Radio 21-avgustda ertalab xalqqa murojaat qilib: “Sovet qo‘shinlari mamlakatga kirib keldi. Bu bosqindir. Qonuniyligi yo‘q”, deb e’lon qildi. Bir necha kun davomida yashirin radiolar faoliyat ko‘rsatib, xalqni tinch qarshilik ko‘rsatishga chaqirdi.

Bosqin paytida va undan keyin 72 chex va slovak fuqarosi halok bo‘ldi, 702 kishi yaralandi. Sovet tomonidan esa 12 askar vafot etdi - ularning aksariyati tasodifiy baxtsiz hodisalar oqibatida.

Moskvadagi muzokaralar. Hibsga olingan Dubchek va boshqa chexoslovakiya rahbarlari Moskvada shiddatli bosim ostida muzokaralar o‘tkazishga majbur bo‘ldi. 1968-yilning 26-avgustida “Moskva protokoli” imzolandi2.Ushbu hujjat bo‘icha Chexoslovakiya aprel dasturini bekor qilishga va Sovet qo‘shinlarining mamlakatda “vaqtinchalik” joylashtirilishiga rozi bo‘ldi. Hujjatni faqat bir kishi - Frantisek Kriegel imzolamadi. Sovetlar uni qaytarib bermagisi kelmasdi, lekin kuchli xalqaro bosim tufayli u ham ozod qilindi.

OQIBATLARI VA TARIXIY AHAMIYATI

Normalizatsiya siyosati (1969–1989). Bosqindan so‘ng Chexoslovakiyada “normalizatsiya” davri boshlandi - bu atama kommunistik partiya tomonidan islohotgacha bo‘lgan tartibni qayta tiklash siyosatiga nisbatan qo‘llanildi. 1969-yilning

[2] Dubchek, A. — "Umid oxirigacha o'lmaydi" (avtobiografiya) https://www.goodreads.com/book/show/353496.Hope_Dies_Last

aprelida Dubchek Birinchi kotib lavozimidan olib tashlandi va o‘rniga Moskvaga sodiq Gustov Husak tayinlandi. Husak 1987-yilgacha bu lavozimda qoldi. 1969-1970-yillarda 500 000 dan ortiq kommunistik partiya a’zosi partiyadan chiqarildi. Ko‘plab davlat idoralaridan islohotchilarga moyil xodimlar ishdan bo‘shatildi. Taqriban 150 000-250 000 nafar chex va slovak mamlakatni tark etib, G‘arbga ketdi. Matbuot senzurasi qayta joriy qilindi. San’atkorlar, yozuvchilar va olimlar iqtisodiy qiyinchilikka solinib, ko‘pchiligi oddiy ishchilarga aylana bordi. Dubchek esa avval Turkiyaga elchi qilib yuborildi, so‘ngra Slovakiyadagi o‘rmon xo‘ljaligida texnik bo‘lib ishlashga majbur bo‘ldi.

Xartiya-77 va muqobil madaniyat. Normalizatsiya davrida ham qarshilik va ozodlik ruhi butunlay o‘lmadi. 1977-yilning yanvarida “Xartiya-77” (Charta 77) nomli fuqarolik huquqlari deklaratsiyasi e’lon qilindi. Bu hujjat Chexoslovakiya hukumatidan 1975-yilgi Xelsinki Kelishimida va BMTning inson huquqlari to‘g‘risidagi hujjatlarda o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishni talab qilar edi. Dastlabki imzochilar orasida dramaturug Vaclav Havel, faylasuf Jan Patocka va boshqa taniqli ziyolilar bor edi. Hukumat imzochilarni ta’qib qildi, ish joylaridan haydadi, ko‘pini qamoqqa oldi. Jan Patocka 1977-yilning martida politsiya so‘rog‘idan so‘ng vafot etdi. Vaclav Havel bir necha bor qamoqqa tashildi, jumladan 1979–1983-yillarda 4 yil davomida. Ammo harakat o‘z faoliyatini to‘xtatmadi.

Baxmal inqilob va erkinlik. 1989-yilning noyabrida “Baxmal inqilob” (Samet revoluce) ro‘y berdi. 17-noyabrda Praga talabalar namoyishi militsiya tomonidan qonga botirilib tarqatib yuborildi[3].Bu voqea mamlakat bo‘ylab ommaviy namoyishlarning boshlanishiga turtki bo‘ldi. Hafta ichida minglab odamlar ko‘chaga chiqdi. Kommunistik partiya rahbariyati 24-noyabrda topshiriq berdi. Dekabr oyida Vaclav Havel - ko‘p yillar davomida mahkum, qamoqda o‘tgan disssident -

[3] Williams, K. — "Praga bahori va uning oqibatlari" https://www.cambridge.org/9780521588157

Chexoslovakiya prezidenti bo‘ldi. 1992-yilning dekabrida Chexiya va Slovakiya tinch yo‘l bilan ikki mustaqil davlatga bo‘linib ketdi.

Aleksandr Dubchek ham 1989-yildan keyin siyosiy hayotga qaytdi. U Federal parlament raisi bo‘ldi. 1992-yilning noyabrida avtohalokat natijasida og‘ir jarohatlangan Dubchek 1992-yilning 7-noyabrida vafot etdi. U asrning eng muhim siyosiy simvollari qatorida qoldi.

Jahon siyosatiga ta’siri. Praga bahorining bostirilishi Xalqaro kommunistik harakatga jiddiy zarar yetkazdi. Ko‘plab G‘arb Yevropa kommunistik partiyalari - Italiya, Fransiya, Ispaniya - SSSR harakatini qoraladi va Moskvadan mustaqilroq siyosat yuritishni e’lon qildi. Bu yo‘nalish “Evrokommunizm” nomi bilan tarixga kirdi.BMT Xavfsizlik Kengashida bosqinni qoralash rezolyutsiyasi loyihasi SSSR tomonidan veto bilan bekor qilindi. Biroq BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyada ishtirok etgan davlatlarning aksariyati tomonidan qoralandi. Sovuq urush davrida AQSh va NATO tomonidan ham kuchli diplomatik norozilik bildirildi.

XULOSA

Praga bahori 1968-yili atigi sakkiz oy davom etdi: yanvardan avgustga qadar. Ammo tarixda u o‘chmas iz qoldirdi. Bu hodisa shuni ko‘rsatdiki, sotsializm tizimi ichida ham erkinlik, inson qadr-qimmati va demokratik boshqaruv uchun kurash olib borish mumkin. Dubchek va uning safdoshlari g‘oya kuchi bilan yangi yo‘lni ochishga harakat qildi.

Sovet Ittifoqi bu harakatni harbiy kuch bilan bostirdi. 200 000 askar va 2 000 tank Praga ko‘chalarini egallab oldi. Ammo g‘oyani o‘ldirolmadi. 1977-yilgi Xartiya-77, 1989-yilgi Baxmal inqilobi - bularning barchasi Praga bahorining bevosita tarixiy merosidan iborat edi.

Praga bahori Sharqiy Yevropa tarixida va butun XX asr Yevropa siyosiy tarixida maxsus o‘rin tutadi. Bu hodisa shuni yaqqol namoyish etdiki, erkinlik uchun kurash to‘xtatib bo‘lmaydi - uni vaqtincha bostirib turish mumkin, xolos. Dubchekning

“insoniy yuzli sotsializm” g‘oyasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘oqotmagan: har qanday siyosiy tizimda ham inson qadr-qimmati birinchi o‘rinda turishi lozimligini eslatib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Williams, K. The Prague Spring and its Aftermath. Cambridge University Press, 1997.
2. Dubcek, A. Hope Dies Last: The Autobiography of Alexander Dubcek. Kodansha International, 1993.
3. Navratil, J. (ed.). The Prague Spring 1968: A National Security Archive Document Reader. Central European University Press, 1998.
4. Skilling, H.G. Czechoslovakia's Interrupted Revolution. Princeton University Press, 1976.
5. Judt, T. Postwar: A History of Europe Since 1945. Penguin Press, 2005.
6. Tigrid, P. Le Printemps de Prague. Seuil, 1968.
7. Ro‘zimurodov, U. Sharqiy Yevropa tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.